



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Tillaboyeva Havasxon Zohidjon qizi

Qo'qon davlat universiteti, 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqola pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo'naltirilgan, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Ilmiy tahlil, nazariy taqqoslash, tizimlashtirish va konseptual modellashirish metodlari yordamida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik jarayoni va malaka standartlariga mos kompetensiyalar tizimi o'rganildi. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuvning o'quvchilarni samarali o'qitish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek pedagogik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shuningdek, xalqaro va milliy tajribalar bilan solishtirish orqali yondashuvning amaliy ahamiyati tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, pedagog tayyorgarligi, boshlang'ich ta'lim, kasbiy kompetensiya, o'qituvchi malakasi, pedagogik innovatsiya.

ЗНАЧЕНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Тиллабоева Хавасхон Зоҳиджон кизи

Кокандский государственный университет, базовый докторант 2 курса

Аннотация

Данная статья посвящена изучению значимости компетентностного подхода в процессе подготовки педагогов к профессиональной деятельности на научной основе. Методология исследования включает личностно-ориентированный, аксиологический и компетентностный подходы. С помощью методов научного анализа, теоретического сравнения, систематизации и концептуального моделирования исследовался процесс профессиональной подготовки будущих педагогов и система компетенций, соответствующая стандартам квалификации. Результаты исследования показали, что компетентностный подход играет важную роль в эффективном обучении учащихся, формировании профессиональных знаний и навыков, а также развитии педагогических и социальных компетенций. Кроме того, сопоставление с международным и национальным опытом подтвердило практическую значимость подхода.

Ключевые слова: Компетентностный подход, подготовка педагогов, начальное образование, профессиональная компетенция, квалификация учителя, педагогические инновации.

THE IMPORTANCE OF THE COMPETENCY-BASED APPROACH IN PREPARING TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Tillaboyeva Havasxon Zohidjon qizi

Kokand State University, 2nd-year Basic Doctoral Student

Abstract

This article is devoted to examining the significance of the competency-based approach in the process of preparing educators for professional activities. The research methodology incorporates student-centered, axiological, and competency-based approaches. Using methods of scientific analysis, theoretical comparison, systematization, and conceptual modeling, the professional preparation process of future educators and a system of competencies aligned with qualification standards were studied. The findings demonstrated that the competency-based approach plays a crucial role in effectively teaching students, developing professional knowledge and skills, as well as fostering pedagogical and social competencies. Furthermore, comparison with international and national experiences confirmed the practical significance of this approach.

Keywords: Competency-based approach, teacher preparation, primary education, professional competence, teacher qualification, pedagogical innovation.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq. Shu sababli pedagoglarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi davrda ta'lim jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv yetakchi pedagogik konsepsiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv shaxsning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularni real pedagogik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini yaratadi.

Jahon pedagogika fanida ham kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta'limning muhim metodologik asoslaridan biri sifatida qaraladi. Mashhur amerikalik pedagog olim John Dewey ta'lim jarayonining amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlab, "Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o'zidir" degan fikrni ilgari surgan[5]. Mazkur g'oya pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishni muhim vazifa sifatida belgilaydi[1]. Shuningdek, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmon bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi" ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi[2]. Ushbu hujjatlar pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni keng qo'llash zarurligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslaydi.

Pedagogika fanida kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, tajriba hamda shaxsiy sifatning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy asoslarini o'rganish, uning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda pedagogik ta'lim tizimida samarali qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning pedagogik ta'lim tizimidagi rolini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni shaxsning bilim, ko'nikma va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan murakkab va tizimli jarayon sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson resurslarini rivojlantirish va sifatli kadrlarni tayyorlash

mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi (Axter, 2015)[3]. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Kompetensiya tushunchasi — bu shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni belgilangan standartlarga mos ravishda bajarish qobiliyati bo‘lib, bilim, ko‘nikma, shuningdek shaxsiy va ijtimoiy sifatlarning uyg‘un majmuini ifodalaydi (Bramante & Colby, 2012)[4]. Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik ahamiyati shundaki, u o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligini nafaqat bilim olish, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati orqali shakllantirishga yo‘naltiradi. Shu sababli, zamonaviy ta‘limda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Competency-Based Education (CBE) yoki kompetensiyaga asoslangan ta‘lim nazariyasi ta‘lim jarayonini natijaga yo‘naltirish va o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan. CBE modeli, shuningdek, har bir o‘quvchiga o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi va o‘quv jarayoni natijaga, ya‘ni kompetensiyalarning egallanishiga asoslanadi (Priest, Rudenstine & Weisstein, 2012; Steele et al., 2014)[14]. Bu yondashuv shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini birlashtirishga xizmat qiladi, chunki o‘quv jarayoni vaqtga emas, natijaga bog‘liq bo‘ladi. CBEning yana bir muhim jihati shundaki, u kompetensiyalarni standartlardan ajratib ko‘rsatadi. Standartlar — bu talab qilinadigan bilim va ko‘nikmalar, kompetensiyalar esa bu bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etiladi (Sturgis & Casey, 2018)[16]. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlashda CBE o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, CBE talaba markazli, individual ehtiyojlarga mos va natijaga yo‘naltirilgan ta‘limning samarali modeli sifatida ko‘plab mamlakatlarda, jumladan Amerika, Buyuk Britaniya va Avstraliyada joriy etilgan va ilmiy asoslangan tadqiqotlarda ijobiy natijalar ko‘rsatgan (Evans, Landl & Thompson, 2021; Gervais, 2016)[7]. Ushbu yondashuv, shuningdek, pedagoglarni tayyorlashda kompetensiyalar tizimini tizimli ravishda shakllantirish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy ta‘limning eng muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga samarali joriy etish uchun yagona tushuncha va konseptual asos yetishmayotganini ko‘rsatadi (Levine & Patrick, 2019; Morrison, 2018). Shu sababli, pedagoglarni tayyorlash jarayonida CBE tamoyillarini tushunish va konseptual tizim sifatida qo‘llash dolzarb ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik tayyorgarlikda o‘quv jarayonini natijaga yo‘naltirish va individual ehtiyojlarni hisobga olishga imkon beradi. CBE tamoyillari asosida tayyorlangan o‘quv dasturlari, talabaning shaxsiy tezligi va o‘rganish uslubiga moslashish imkonini beradi, bu esa pedagogning kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishni ta‘minlaydi (Sturgis & Casey, 2018)[16]. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan pedagogik tayyorgarlik talabaning amaliy ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, pedagogik mashg‘ulotlar va simulatsiyalar orqali o‘quvchilar kasbiy vazifalarni mustaqil va ijodiy tarzda bajarishga o‘rgatiladi (Klein-Collins, 2013)[9]. Bu, ayniqsa, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega, chunki ularning kasbiy kompetensiyalari va shaxsiy malakasi ta‘lim sifatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, kompetensiyaga asoslangan tayyorgarlik nazariy bilim va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik amaliyot orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishadi, balki uni amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar (Egodawatte, 2014)[5]. Shu bilan birga, CBE metodologiyasi talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi samarali fikr-mulohaza tizimini yaratadi, bu esa kasbiy kompetensiyalarni baholash va rivojlantirishni osonlashtiradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, CBE tamoyillarini joriy etishda talabalarni individual rivojlantirish va ularning qobiliyatlarini maksimal darajada ochishga alohida e‘tibor beriladi (Evans, Landl & Thompson, 2021)[7]. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlashda CBE talabaning o‘zlashtirish jarayonini va kasbiy kompetensiyalarni nazorat qilishga imkon beradigan samarali model sifatida ko‘riladi. Bundan tashqari, CBE pedagoglarni tayyorlashda axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Talabalar faqat bilimga ega bo‘lib qolmay, balki o‘z faoliyatida ijtimoiy mas‘uliyatni, hamkorlikni va axloqiy qadriyatlarni qo‘llashga o‘rgatiladi (Moon, 2007)[12]. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuv milliy ta‘lim standartlari va madaniy kontekstga moslashgan holda joriy etilganda yanada samarali bo‘ladi, bu esa pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarni tayyorlashda zamonaviy metodologik asos sifatida qaraladi, chunki u:

1. Talabani individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga oladi.
2. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtiradi.
3. Kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
4. Ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ilmiy va tizimli metodologik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologiyasi pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash hamda uning pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu maqsadda tadqiqot dizayni zamonaviy pedagogik tadqiqotlar talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqildi va unda nazariy hamda empirik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida pedagoglarni tayyorlashga oid ilmiy manbalar, pedagogik konsepsiyalar hamda kompetensiyaviy ta'limga oid xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili orqali kompetensiya tushunchasi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli va pedagogik tayyorgarlik jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan o'rganildi. Ushbu metod turli ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlarni tizimli ravishda umumlashtirish va tadqiqotning konseptual asoslarini shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodi ham qo'llanildi. Ushbu metod orqali turli mamlakatlar ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning qo'llanilishi va pedagoglarni tayyorlash jarayoniga ta'siri o'rganildi. Milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni taqqoslash orqali kompetensiyaga asoslangan pedagogik tayyorgarlik modelining o'ziga xos xususiyatlari hamda samarali jihatlarini aniqlashtirildi. Bu esa olingan natijalarni milliy ta'lim tizimi sharoitida talqin qilish imkonini berdi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari tadqiqotning nazariy va tahliliy natijalarini birlashtirishda muhim rol o'ynadi. Pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o'rganildi. Natijada pedagoglarni tayyorlash jarayonida shakllantirilishi zarur bo'lgan asosiy kasbiy kompetensiyalar hamda ularning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati aniqlashtirildi. Ushbu metodlar yordamida turli ilmiy qarashlar yagona nazariy yondashuv asosida umumlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida pedagogik tahlil metodi qo'llanilib, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik jarayonga ta'siri o'rganildi. Bu metod orqali pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari hamda o'quv jarayonini tashkil etishning samarali usullari aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llashning ilmiy asoslarini aniqlashga xizmat qildi. Mazkur metodologiya pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini chuqur tahlil qilish, kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlash hamda olingan natijalarni ilmiy asosda talqin qilish imkonini berdi. Shu orqali tadqiqot pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samaradorligini baholash uchun mustahkam ilmiy metodologik asos yaratdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida empirik usul sifatida soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilar orasida anonim so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnomada Qo'qon davlat universitetining 100 nafar respondentlari (40% professor-o'qituvchilar, 60% talabalar) ishtirok etdi. Respondentlar kompetensiya, malaka va ko'nikma tushunchalari bo'yicha savollarga javob berdi.


NATIJALAR

Tadqiqotimizning amaliy qismida olingan ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan avval, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning konseptual asoslarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi 1-grafikda bo'lajak tarbiyachilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlashning tarkibiy qismlari va ushbu jarayonni taqozo etuvchi omillar tizimlashtirilgan.

Mazkur tadqiqot pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, o'tkazilgan tahlillar pedagogik ta'lim tizimida ushbu yondashuv muhim natijalar berishini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, xalqaro pedagogik tajribalar va ta'lim tizimiga oid konseptual yondashuvlar o'rganilib, pedagoglarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi bir necha mezonlar asosida baholandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik tayyorgarlik modeli o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishda samarali vosita sifatida qayd etilgan. Masalan, xalqaro pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchilarning muammolarni hal qilish,

ijodiy fikrlash va pedagogik qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.



Mahalliy pedagogik tadqiqotlar ham pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish ta'lim sifatini oshirishga yordam berishini ko'rsatadi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning kommunikativ, metodik va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida pedagoglarni tayyorlash jarayonida shakllanadigan asosiy kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi. Ushbu kompetensiyalar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.


1-jadval

Kompetensiya turi	Mazmuni
Kasbiy kompetensiya	Pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati
Metodik kompetensiya	Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalari
Kommunikativ kompetensiya	O'quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot
Innovatsion kompetensiya	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash
Tahliliy kompetensiya	Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pedagogik tayyorgarlik jarayonida kompetensiyalar tizimi ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy faoliyatni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli kompetentsiyaviy yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompleks metodologik asos sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalarini yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida kompetentsiyaviy yondashuvning pedagogik tayyorgarlikka ta'siri diagramma ko'rinishida ifodalandi.


1-diagramma

Kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik tayyorgarlikka ta'siri



Diagrammadan ko'rinadiki, pedagoglarni tayyorlash jarayonida eng muhim omillardan biri kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Bu esa o'qituvchining nazariy bilimlarini real pedagogik faoliyatda qo'llash qobiliyati bilan bog'liqdir. Metodik va kommunikativ kompetensiyalar esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash sifati bevosita kompetensiyaviy yondashuvning to'g'ri tatbiq etilishiga bog'liq. Biroq, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilar o'rtasida "kompetensiya", "malaka" va "ko'nikma" kabi fundamental tushunchalarni idrok etishda hamon turli yondashuvlar va terminologik chalkashliklar mavjudligi kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi ishtirokchilari o'rtasida ushbu tushunchalar bo'yicha yagona konsensus (kelishuv) hali to'liq shakllanmagan.

2-diagramma



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak mutaxassislarda "Ta'lim natijalari" va "Ko'nikma" tushunchalari bo'yicha tasavvur ancha yuqori bo'lsa-da, bevosita "Kompetensiya" tushunchasini mohiyatini tushunish ko'rsatkichi past (40%) darajada qolmoqda. Bu esa pedagogik ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini yanada chuqurroq o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, soha mutaxassislari o'rtasida asosiy tushunchalar (kompetensiya, malaka, ko'nikma) bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud (2-jadval).

2-jadval

Tushunchalar	Kompetensiya	Malaka	Mahorat	Qobiliyat	Ko'nikma	Ta'lim natijasi
Kompetensiya	40	16	16	12	12	3
Malaka	21	35	21	4	9	7
Mahorat	18	37	30	9	7	7
Qobiliyat	11	1	5	47	9	3
Ko'nikma	8	1	6	20	54	11
Ta'lim natijasi	1	0	2	0	7	68
Boshqalar*	1	10	20	8	2	1
Jami	100	100	100	100	100	100

Jadvaldan olingan xulosalar:

Tushunchalarni identifikatsiya qilish: Tadqiqot ishtirokchilarining atigi 40 foizi "kompetensiya" tushunchasining ilmiy ta'rifini to'g'ri aniqlay olgan. Aksincha, eng yuqori ko'rsatkich "ta'lim natijalari" (68%) va "ko'nikma" (54%) tushunchalarida kuzatildi. Bu holat pedagogik kadrlar tayyorlashda "kompetensiya" terminining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Atamalar chalkashligi: "Malaka" (qualification) va "mahorat" (proficiency) tushunchalari o'rtasida sezilarli chalkashliklar aniqlandi. Xususan, ishtirokchilarning 37 foizi malaka ta'rifini mahorat deb, 21 foizi esa aksincha talqin qilgan. Soha vakillarining subyektiv takliflari: Ishtirokchilar "malaka" tushunchasini ko'p hollarda bevosita "diplom" yoki "sertifikat" bilan bog'lashgan (Pc1, Pc3 respondentlar). Shuningdek, "ko'nikma" tushunchasi ba'zi pedagoglar tomonidan "refleks" yoki "odat" (Pc2, Pc11 respondentlar) sifatida qabul qilingan. Bu natijalar kompetensiyaviy yondashuvni faqat hujjat (diplom) bilan emas, balki real amaliy qobiliyat bilan bog'lash lozimligini isbotlaydi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim (CBE) evolyutsiyasi:

Tadqiqot doirasida kompetensiyaga asoslangan ta'limning tarixiy taraqqiyoti ham tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 1970-2000 yillardagi yondashuvlar asosan tor doiradagi ko'nikmalarga qaratilgan bo'lsa, 2010-yildan keyingi zamonaviy ta'riflar pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatleri majmuasiga urg'u bermoqda. Pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, balki mutaxassislarda ushbu tushunchalarning ilmiy-nazariy asoslarini to'g'ri anglashga ham bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida pedagoglarni tayyorlashda kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.


3-jadval

Omil	Ta'sir darajasi
Pedagogik nazariy bilimlar	Yuqori
Amaliy pedagogik tajriba	Yuqori
Innovatsion texnologiyalarni qo'llash	O'rta
Kommunikativ ko'nikmalar	O'rta
Mustaqil tahlil va refleksiya	Yuqori

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy tajriba eng muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagoglarning refleksiv fikrlashi va pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyati ham kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonida eng katta ta'sirni kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish orqali ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shuningdek, pedagogik muammolarni hal qilish, innovatsion metodlardan foydalanish hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim natijalar sifatida namoyon bo'ladi.

3-diagramma

Q'ituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv sohalariga ta'siri



O'tkazilgan tadqiqot natijalari pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim pedagogik natijalar berishini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, ushbu yondashuv o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik muammolarni tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, pedagoglarni tayyorlash jarayonida kasbiy, metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jadval va diagrammalar orqali olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan birga, ularning pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini ham kuchaytirishini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta'lim tizimida zamonaviy va raqobatbardosh o'qituvchilarni tayyorlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi. Bu esa pedagogik ta'lim jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda ushbu yondashuvni keng qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyalarni tizimli ravishda shakllantirish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, kasbiy, metodik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish pedagoglarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalari xalqaro pedagogik tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli o'qituvchilarning muammolarni tahlil qilish, innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashuvni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari mahalliy pedagogik tajribalar bilan ham uyg'unlikda ekanligi kuzatildi. O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandiki, kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning pedagogik refleksiya, mustaqil tahlil va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim tizimiga samarali joriy etish uchun pedagogik ta'lim dasturlarini takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash zarur. Bu omillar pedagoglarni kasbiy faoliyatga yanada samarali tayyorlashga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv pedagogik ta'lim tizimida zamonaviy, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi o'qituvchilarni tayyorlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot pedagoglarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini o'rganishga qaratildi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta'lim jarayonida kasbiy, metodik, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishda muhim omil ekanligini tasdiqladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, pedagogik muammolarni tahlil qilish va zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida raqobatbardosh va zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu yondashuvni keng

qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga asosanib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagoglarni tayyorlash dasturlarida kompetensiyaviy yondashuv tamoyillarini keng joriy etish zarur.
2. O'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy pedagogik mashg'ulotlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.
3. Pedagogik ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o'qitish metodlarini keng qo'llash lozim.
4. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.
5. Ta'lim muassasalarida pedagoglarning refleksiv fikrlashi va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik qo'llanmalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy ta'lim talablariga javob beradigan malakali o'qituvchilarni tayyorlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli, pedagogik ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni izchil rivojlantirish ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni – "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni – "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"
3. Axter, J. Human resources development and the role of education in modern societies. – London: Routledge, 2015. – 256 p.
4. Bramante, M., Colby, S. Competency-based learning and the development of student skills in higher education // Journal of Educational Assessment. – 2012. – Vol. 27, No. 3. – P. 45–59.
5. Dewey, J. Democracy and Education. – New York, 1916. – 434 p.
6. Egodawatte, G. Competency-based education and the application of knowledge and skills in context // International Journal of Educational Development. – 2014. – Vol. 37. – P. 68–76.
7. Evans, D., Landl, K., Thompson, P. Competency-based education research: A review of literature from 2000 to 2019 // Review of Educational Research. – 2021. – Vol. 91, No. 2. – P. 1–35.
8. Gervais, J. The operational definition of competency-based education // Journal of Competency-Based Education. – 2016. – Vol. 1, No. 2. – P. 98–106.
9. Klein-Collins, R. Sharpening our focus on learning: The rise of competency-based approaches to degree completion. – Washington, DC: Council for Adult and Experiential Learning, 2013. – 78 p.
10. Le, C., Wolfe, R., Steinberg, A. The past and the promise: Today's competency education movement. – Washington, DC: Center for American Progress, 2014. – 64 p.
11. Lewis, M., Steele, J., Santibañez, L., Stecher, B., Hamilton, L., Faxon-Mills, S., Rudnick, M. Competency-based education: Policy, implementation and practice. – Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2013. – 120 p.
12. Moon, B. The role of education in developing human potential and social development // Oxford Review of Education. – 2007. – Vol. 33, No. 2. – P. 123–137.
13. Patrick, S., Kennedy, K., Powell, A. Meanings and models of competency-based education. – International Association for K–12 Online Learning Research Series, 2013. – P. 1–34.

14. Priest, N., Rudenstine, S., Weisstein, E. Making mastery work: A close-up view of competency education // International Journal of Educational Reform. – 2012. – Vol. 21, No. 3. – P. 215–230.
15. Steele, J., Lewis, M., Santibañez, L., Faxon-Mills, S., Rudnick, M., Stecher, B., Hamilton, L. Competency-based education in three pilot programs: Examining implementation and outcomes // Educational Policy Analysis Archives. – 2014. – Vol. 22, No. 86. – P. 1–29.
16. Sturgis, C., Casey, J. Quality principles for competency-based education. – Vienna, VA: iNACOL, 2018. – 45 p.